
AXSHAKLIK TADBIRKOR TOMONIDAN 13 TA YANGI ISH O'RNI YARATILDI

Mamlakatimizda aholini turmush farovonligini oshirish, ayniqsa, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo'lgan fuqarolar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Toshloq tumani "Axshak" MFYda yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan Naziraxon Nazirova tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'yib, mahalladagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minladi.

Mahalla hokim yordamchisi Muhiddin Botirov tavsiyasi asosida 60 million so'm imtiyozli kredit mablag'i hisobiga 12 ta zamonaviy tikuv mashinalari sotib olindi. Natijada tadbirkor 13 nafar ayol-qizlarni doimiy ish bilan ta'minladi.

Shuningdek tadbirkor "Ayollar daftari"da turgan hamda subsidiya asosida tikuv mashinalari olgan 10 nafar ayollarni ham kasanachilik asosida ish bilan ta'minlab turli xil harbiy ust-boshlarni tikib harbiy qismlarga yetkazib bermoqda.

2023-07-11 15:26:25